



«Farg'onaazot» AJ aksiyadorlarining  
navbattan tashqari umumiylig'i ilishining  
**2020 yil 04 dekabrdagi 2-sonli**  
yig'ilish bayoni qarori bilan  
**«TASDIQLANGAN»**

# «Farg'onaazot» aksiyadorlik jamiyati

# USTAVI (yangi tahrir)

1 Umumiy qoidalar.....	3
2 Jamiyatning xuquqiy xolati, javobgarligi .....	3-4
3 Jamiyat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadi .....	4-7
4 Jamiyat ustav kapitalining miqdori.....	7
5 Jamiyat ustav kapitalini kupaytirish/kamaytirish.....	7-8
6 Jamiyatning aksiyalari, ularning nominal qiymati va ularni joylashtirish tartibi.....	8
7 Jamiyat aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari.....	8-10
8 Jamiyat foydasini, dividendlarni taqsimlash va zararni qoplash tartibi..	10-11
9 Jamiyatning zaxira fondi.....	11
10 Jamiyat boshqaruvining tuzilmasi.....	11
11 Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi .....	11-13
12 Jamiyat Kuzatuv kengashi.....	13-15
13 Jamiyatning Ijroiya organi.....	15-17
14 Jamiyat faoliyatini nazorat kilish.....	17-18
15 Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish.....	18-19
16 Ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.....	19
17 YAkuniy qoidalar.....	19

## 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu ustav O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni (matn davomida – Qonun) va boshka qonun xujjalari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Bundan buyon matnda «jamiyat» deb ataluvchi «Farg'onaazot» aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasining 2004 yil 31 dekabrdagi 192k-PO-sonli «Azot» ishlab chiqarish birlashmasi - davlat korxonasini davlat tasarrufidan chiqarish va uni ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish to'g'risida»gi buyrug'iqa asosan tashkil etilgan.

1.3. Jamiyat dastavval, Farg'ona viloyati Farg'ona shahri hokimligi huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yhatdan o'tkazish inspeksiysi tomonidan 2005 yil 19 yanvarda 98- raqam bilan ro'yhatga olingan.

1.4. Jamiyat Farg'ona viloyati Farg'ona shahri hokimligi huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yhatdan o'tkazish inspeksiysi tomonidan 2015 yil 24 iyunda 125 sonli reestr tartib raqami bilan qayta ro'yhatiga olingan.

1.5. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning xukuklarini ximoya qilish to'g'risida»gi (06.05.2014 O'RQ-370) va «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi (03.06.2016 O'RQ – 387) Qonunlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

1.6. Jamiyatning to'liq firma nomi:

1.6.1. O'zbek tilida:

- lotin yozuvida **«Farg'onaazot» Aksiyadorlik jamiyati.**
- kiril yozuvida **«Фарг'онаазот» Аксьядорлик жамияти.**

1.6.2. Rus tilida:

Aksionernoje ob'jestvo **«Farg'onaazot».**

1.6.3. Ingliz tilida:

- joint stock **«Farg'onaazot»**

1.7. Jamiyatning qisqartirilgan nomi:

1.7.1. O'zbek tilida:

- lotin yozuvida **«Farg'onaazot» AJ.**
- kiril yozuvida **«Фарг'онаазот» А.Д.**

1.7.2. Rus tilida:

**АО «Farg'onaazot».**

1.7.3. Ingliz tilida:

**JSC «Farg'onaazot»**

1.8. Jamiyatning manzili:

- joylashgan eri: O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Sanoat qo'chasi 222- uy

- pochta manzili: 115108, O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Sanoat qo'chasi 222- uy

1.9. Jamiyatning elektron pochta manzili: [info@azot.uz](mailto:info@azot.uz)

1.10. Jamiyatning korporativ veb-sayti: [www.azot.uz](http://www.azot.uz).

## 2. JAMIYATNING HUQUQIY HOLATI, JAVOBGARLIGI

2.1. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulk shu jumladan o'zining ustav kapitaliga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2.2. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan holda tashkil etiladi.

2.3. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

2.4. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan eri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishi lozim. Muhrda bir vaqtning o‘zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin.

2.5. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.

2.6. Jamiyat o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo‘ladi.

2.7. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi va uning faoliyati bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligin o‘z zimmasiga oladi.

2.8. Aksiyalarning haqini to‘liq to‘lamagan aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladi.

2.9. Jamiyat o‘z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

2.10. Agar jamiyatning bankrotligi jamiyat uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan aksiyador sifatida ish yuritayotgan shaxsning g‘ayriqonuniy harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo‘lsa, jamiyatning mol-mulki etarli bo‘lmagan taqdirda, mazkur aksiyadorning zimmasiga jamiyatning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin. Aksiyador majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ushbu ustavda bu huquq nazarda tutilgan taqdirdagina ega bo‘ladi.

2.11. Jamiyat uchun majburiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘lgan aksiyador jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida bankrot bo‘lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina jamiyatning bankrotligi aksiyadorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

2.12. Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi, xuddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

### **3.JAMIYAT FAOLIYATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MAQSADI**

3.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo‘lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy-xujalik faoliyatidan foya olishdir. Belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun faoliyatning predmeti (asosiy yo‘nalishlari) quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- mineral o‘g‘itlar, defoliantlar, atsetat hamda poliamid tolalar, organik va noorganik kimyo mahsulotlari va ularni ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan yarim va tayyor maxsulotlar, xalq iste’moli mollari va boshqa maxsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- o‘z tovar va xizmatlariga narxlarni, xarid qilish sotish shartlarini mustaqil belgilash (monopol maxsulot reestriga kiritilgan va narxlarni tartibga solish organi tomonidan deklaratsiyalanishi lozim bo‘lgan maxsulot bundan mustasno);
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashkarida mustaqil ravishda yoki vositachilar orqali ulgurji va chakana savdoni amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashkarida tovar va mol-mulkning barcha (moddiy va nomoddiy, ko‘chmas va ko‘chadigan) turlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, qurish qo‘lga kiritish, ular yuzasidan bitimlar tuzish, ijaraga olish yoki boshqa tarzda qo‘lga kiritish va/yoki yuqorida ko‘rsatilgan mol-mulkni ijaraga berish, garovga qo‘yish, undan foydalanish huquqini boshka shaxslarga berish yoki istalgan boshqa tarzda uni tasarruf qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashkarida istalgan shaxslar bilan mustaqil tarzda bitim va kelishuvlar tuzish, tijorat va xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullanish hamda zimmasiga majburiyatlar olish;

- mazkur Ustavning 3.1 – bandida va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidan belgilangan jamiyatning tijorat faoliyati va uning asosiy vazifalari uchun zarur va mos bo‘lgan import va eksport amaliyotini mustaqil tarzda yoki vositachilar orqali amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashkarida shirkatlar, qo‘shma va sh.k. korxonalarini tuzish bo‘yicha bitimlarni tuzish va bekor qilish;
  - O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashkarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini, filial va vakolatxonalarini tuzish;
  - tovar va valyuta birjalarining ishida ishtirok etish;
  - mablag‘larni qarzga olish yoki mablag‘ to‘plashni tashkil etish, jamiyat majburiyatlarini bo‘yicha yoki qarzdorning mol-mulkiga band solish yo‘li bilan har qanday shaxsga garov taqdim etish;
  - jamiyat mablag‘larini O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashkarida investitsiya shaklida kiritish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq investitsiyalar, aksiyalar, kreditlar va boshqa qimmatli qog‘ozlari qo‘lga kiritish va/yoki boshqa shaxslarga o‘tkazish, almashtirish va ulardan boshqa tarzda foydalanish;
  - jamiyat fondlarini jamiyatning va uning istalgan sho‘ba kompaniyasining xo‘jalik faoliyatini kengaytirish uchun ishlatish;
  - istalgan shaxsga kafolat bilan yoki kafolatsiz, muvofiq bo‘lgan istalgan shartlarda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq pul mablag‘larini qarzga yoki avans (bo‘nak) sifatida berish yoki boshqa tarzda qarz berish;
  - kompaniyaning xar qanday mulkini, jamiyatning yoki istalgan boshqa shaxsning kontraktlari yoki majburiyatlarini bajarilishini majburiyatlar bilan yoxud qarzdorning mol-mulkiga band solish huquqi bilan kafolatlash;
  - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jamiyatning istalgan aksiyalari va/yoki boshqa qimmatli qog‘ozlarini chikarish yoki ularni istalgan shaxsga sotish xamda shunday chiqarish yoki sotish yuzasidan har qanday bitimga kirish;
  - O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashkarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq har qanday savdo markalari, nomlari, xizmat ko‘rsatish belgilari, dizaynlar, patentlar, ixtiolar, nou-xaular va intelektual mulkning boshqa shakllarini ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ariza berish va ro‘yxatdan o‘tkazish, ularni sotib olish yoki o‘zga usulda qo‘lga kiritish, sotish, litsenziyalash, o‘zga shaxslarga berish yoki ular bilan savdo qilish;
  - har qanday shaxsni yollash, jamiyatning har qanday mansabdon shaxsiga yoki xodimiga yoki sobiq mansabdon shaxsiga yoki xodimiga yoxud ularning qarindoshlariga yoki boqimandalariga ish xaqi, pensiya va boshqa nafaqlarni to‘lash, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq pensiyalar, nafaqlar, mukofotlar va rag‘batlantirishlarni to‘lash buyicha rejalarini ishlab chiqish va joriy qilish;
  - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yo‘qotishlar tavakkalchiliklar va mas’uliyatning boshqa turlaridan sug‘urtani amalga oshirish;
  - O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashkarida ko‘rgazmalar va kimoshdi savdolarini tashkil etish, ularda ishtirok etish va shu kabi faoliyat bilan shug‘ullanish;
    - basharti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 – yil 15 – maydag‘i PF – 4725-sonli «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli ximoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni talablariga zid bo‘lmasa, xayriya va xomiylig badallarini ajratish xamda sog‘liqni saqlashga, madaniyatga va ilm-fanga mablag‘lar ajratish;
    - O‘zbekiston Respublikasi xududida va undan tashqarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mustaqil tartibda yoki boshqa shaxslar bilan xamkorlikda yoki ular orqali yoxud agent, ikkilamchi pudratchi, sho‘ba korxonasi yoki vakolatxona vositachiligidan yoxud o‘zga usulda rahbar, agent, pudratchi yoki boshqa sifatda faoliyat yuritish;
    - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jamiyat qaramog‘ida tibbiy muassasalarni ta‘minlash yo‘li bilan tibbiy yordam ko‘rsatish;
    - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq reklama kompaniyalarini tashkil etish;
    - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ommaviy axborot vositalarini chop etishni tashkil etish;

▪ savdo va savdo-vositachilik, jumladan eksportga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirish;

▪ O‘zbekiston Respublikasida va undan tashqarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq xam mahalliy, xam xorijiy tayanch valyutada tovar(xizmat)larni xarid qilish/sotish.

3.2. Jamiyat asosiy maqsadiga erishish uchun faoliyat va xizmat ko‘rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

▪ mineral o‘g‘itlar, defoliantlar, atsetat hamda poliamid tolalar, organik va noorganik kimyo mahsulotlari va ularni ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan yarim va tayyor maxsulotlar, xalq iste’moli mollari va boshqa maxsulotlarni ishlab chiqaradi;

▪ qishloq xo‘jalik maxsulotlari ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan davlat extiyojlar uchun;

▪ chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik va parrandachilik, shuningdek, nasldor chorva hamda parrandalarni ko‘paytirish va ularni sotish, o‘z extiyoji uchun foydalanish;

▪ temir yo‘l transporti orqali yuklarni tashish, mavjud bo‘lgan avtomobil, transport vositalari bilan yuk, yo‘lovchilarni tashish va hizmat ko‘rsatish;

▪ jamiyat ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta foydalanish maqsadida turli shakldagi xalqaro hamkorliklarda qatnashadi va jamiyat eksport bazasini rivojlantiradi;

▪ savdo-xarid va savdo-vositachilik faoliyatini yuritadi, vositachilik xizmatlarini ko‘rsatadi;

▪ maxalliy telefon aloqasi, ko‘chma radiotelefon aloqasi tarmog‘i xizmatlarini ko‘rsatish va foydalanish;

▪ ko‘p tirajli gazetalar chop etish;

▪ jamiyat xodimlari va ularning oila a’zolarini sog‘lomlashtirish uchun dam olish maskanlarini tashkil etish;

▪ yuridik va jismoniy shaxslarga pullik xizmat ko‘rsatish;

▪ dori- darmonlar xarid qilish;

▪ xalq istemoli mollarini ishlab chiqarish va sotish;

▪ innovatsion mahsulotlarni kashf etish va sotish;

▪ axborot-reklama nashriyot ishlarini bajarish;

▪ firma do‘konlarini, filiallarini va bo‘limlarini tashkil etish;

▪ qishloq xo‘jalik mahsulotlari, avtomobil va yuk mashinalari extiyot qismlari bilan savdo vositachilik qilish;

▪ xo‘jalik mollari sotish va vositachilik qilish;

▪ do‘konlar, umumiyl rivojlanish punktlarini ochish;

▪ har qanday xo‘jalik faoliyatida va ishlab chiqarishda O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq vositachilik xizmatlarini ko‘rsatish;

▪ ijara faoliyati bilan shug‘ullanish;

▪ moliyaviy faoliyat (foizlar ko‘rinishida dividend, chet el valyutasining kurs farqlaridan daromad olish) bilan shug‘ullanish;

▪ yig‘ilish, simpozium, madaniy-ommaviy va boshqa shu kabi tadbirlarni tashkil etish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish;

▪ siqilgan tabiiy gazni sotish;

▪ O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga xaqlidir.

Jamiyat qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini o‘rnatilgan tartibda amalga oshirishi mumkin.

#### 4. JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI

4.1. Jamiatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

4.2. Jamiat ustav kapitali 83 472 914 910 (sakson uch milliard to‘rt yuz yetmish ikki million to‘qqiz yuz o‘n to‘rt ming to‘qqiz yuz o‘n) so‘mni tashkil qiladi. U har birining nominal qiymati 2 530 so‘m bo‘lgan 32 670 483 dona oddiy va 322 764 dona imtiyozli aksiyalarga bo‘lingan.

## **5. JAMIYATNING USTAV KAPITALINI KO'PAYTIRISH/KAMAYTIRISH**

### **a) Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish**

5.1. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

5.2. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan Jamiyat ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

5.3. Ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiyligi qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

5.4. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtirilishi mumkin.

5.5. Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirish kiritish haqidagi qarorlar jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

5.6. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayrboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega.

5.7. Imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadagi jamiyat aksiyadorlari reestrining ma'lumotlari asosida tuziladi.

5.8. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida, lekin nominal qiymatidan kam bo'lmasan qiymatda joylashtiriladi.

5.9. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan, aksiyadorlar o'rtaida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlardan kelib chiqqan xolda belgilanadi.

Jamiyatning ustav kapitali ko'paytirilayotganda jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

5.10. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga jamiyat ustav kapitalidagi davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror jamiyat aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi tomonidan jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (davlatdan tashqari) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

### **b) Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish**

5.11. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiyligi sonini qisqartirish, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

5.12. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

5.13. Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

## **6. JAMIYATNING AKSIYALARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI VA ULARNI JOYLASHTIRISH TARTIBI**

6.1. Jamiyatning aksiyalari oddiy va imtiyozli bo'lib, xujjatsiz shaklda hisobi yuritiladi.

6.2. Aksiya bo‘linmasdir. Agar aksiya umumiyligi mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo‘lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e’tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o‘zlarining umumiyligi vakili orqali foydalanadi.

6.3. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo‘lsa, o‘sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi — aksiyador deb e’tirof etiladi.

6.4. Aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varag‘idan ko‘chirma bilan tasdiqlanadi.

6.5. Imtiyozli aksiyalar egalari jamiyat tugatilgan taqdirda uning mulklari taqsimlanayotgan paytda oddiy aksiya egalari o‘rtasida mulk taqsimoti amalga oshirilgunga qadar o‘z aksiyalarining nominal qiymatini oladilar.

6.6. Jamiyat o‘zi joylashtirgan imtiyozli aksiyalarni olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq belgilanadi.

6.7. Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati 2 530 (ikki ming besh yuz o‘ttiz) so‘m.

6.8. Jamiyat aksiyalarining joylashtirilishi qonun xujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## 7. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Jamiyat aksiyadorlarining huquqlari quyidagilardan iborat:

- Jamiyatning aksiyadorlari reestriga kiritilish;
- o‘ziga ta’luqli depo hisobvarag‘idan ko‘chirma olish;
- Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;
- Jamiyat tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol – mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- Jamiyatning moliya – xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olgan dividendini erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;
- o‘ziga etkazilgan zararning o‘rnini qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notiyorat tashkilotlariga birlashish;
- qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish;
- o‘zga aksiyadorlarning roziligidan o‘ziga tegishli aksiyalarni uchinchi shaxslarga begonalashtirish bilan bog‘liq bitimlarni amalga oshirish;
- Jamiyat aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o‘z vakiliga (vakillariga) berish.

7.2. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladilar.

7.3. Jamiyatning har bir oddiy aksiyasi uning egasi bo‘lmish aksiyadorga bir xil xajmda huquqlar beradi.

7.4. Oddiy aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar ushbu Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishida mazkur yig‘ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo‘yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, Jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqini beradi.

7.5. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar, agar mazkur Ustavda va qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida ovoz berish huquqiga ega emas.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida jamiyat ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi

masalalar, shu jumladan avvalgi navbatdagi imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendning miqdorini belgilash yoki ko'paytirish va (yoki) tugatilish qiymatini belgilash yoki ko'paytirish masalalari, shuningdek imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarga dividend va (yoki) bu aksiyalarning tugatilish qiymatini to'lash navbatli bo'yicha imtiyozlar berish hollari hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladi.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish huquqiga imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiyligi yig'ilishidan keyingi yig'ilishidan boshlab ega bo'ladi. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq miqdorda to'langan paydan e'tiboran bekor qilinadi.

7.6. Jamiyatning imtiyozli aksiyalarini oddiy aksiyalarga ayirboshlash mumkin emas.

7.7. Imtiyozli aksiyalar o'z egalariga dividendlarni olishda va Jamiyat tugatilayotganda uning mulki taqsimlanishida birinchi navbatda ishtirok etish imtiyozli xuquqni beradi.

Jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan qiymat (tugatilish qiymati) imtiyozli aksiyalar nominal qiymatining 100% ni tashkil kiladi.

Taqsimlanayotgan mulkning miqdori Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan oshgan xollarda, imtiyozli aksiyalar egalari oddiy aksiyalar egalari olayotgan mulkning qiymatigacha qo'shimcha to'lov oladilar.

7.8. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paydan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda investitsiya vositachisi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

7.9. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularning oluvchisiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paydan e'tiboran o'tadi.

7.10. Jamiyat aksiyadorlarining majburiyatları:

- mazkur Ustavda ko'rsatilgan tartibda, miqdor va usullarda aksiyalarning narxini to'lash;
- mazkur Ustavda nazarda tutilgan chegaralarda, Jamiyat boshqaruv organlarining qarorlariga bo'yushish;
- Jamiyatning maxfiy tusda bo'lgan axborotlarini oshkor qilmaslik;
- o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi investitsiya vositachisini xabardor qilish.

7.11. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladir.

## **8. JAMIYAT FOYDASINI, DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI**

8.1. Amaldagi qonunchilikka asosan byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng, Jamiyat fondlariga ajratmalar bajariladi. Taqsimlanmagan foyda Jamiyat aksiyadorlari umumiyligi yig'ilishi tomonidan belgilangan tartibda ishlataladi.

8.2. Jamiyat aksiyadori (aksiyadorning vakili) qarori bilan Jamiyatning sof foydasi va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan ajratmalar o'tkazish yuli bilan, Dividend to'lash fondi tuzilishi mumkin. Jamiyatning Dividend to'lash fondi dividendlarni to'lash uchun mablag'larni zahiralash va keyinchalik aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi qaroriga muvofiq aksiyadorlarga dividendlarni to'lab berish uchun mo'ljallanadi

8.3. Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtaida taqsimlanadigan qismidir. Dividendlar Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

8.4. Jamiyat aksiyalar bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

8.5. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari yoxud Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lanishi mumkin.

Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo‘yicha hisoblangan dividendlarni qimmatli qog‘ozlar bilan to‘lashga yo‘l qo‘yilmaydi.

8.6. Dividend aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Imtiyozli aksiya o‘z egasiga xar yili bir dona aksiya nominal qiymatining 25 foizi miqdorida birinchi navbatda dividend olish xuquqini beradi.

8.7. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

8.8. Aksiyalarning har bir turi bo‘yicha dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko‘p bo‘lishi mumkin emas.

8.9. Dividendlarni to‘lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to‘lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran oltmis kundan kech bo‘lmasligi lozim.

8.10. Jamiyatning zararlari qonunchilikda belgilangan tartibda zaxira fondi mablag‘lari hisobiga qoplanadi.

8.11. Jamiyat quyidagi hollarda dividendlarni to‘lash haqida qaror qabul qilishga haqli emas:

- Jamiyat ustav fondining hammasi uning ta’sis etilishi chog‘ida to‘liq to‘lab bo‘linguniga qadar;
- agar dividendlar to‘lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to‘lash natijasida paydo bo‘lsa;
- agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi va zaxira fondi summasidan kam bo‘lsa.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan holatlар tugatilgach, Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra hisoblangan dividendlar aksiyadorlarga to‘lashi shart.

8.12. Jamiyat dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e’lon qiladi.

8.13. Dividendlarni to‘lash tartibi va me’yorlari ushbu Ustav hamda Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig‘ilishi qarori bilan belgilanadi.

8.14. Jamiyatning xomiylik va xayriya yordamlari uchun ajratiladigan yillik xarajatlari miqdori oldingi (bazis) yilda olingen sof foydaning 10 foizidan oshmasligi shart. Xomiylik va xayriya yordamlari Jamiyat tomonidan oldingi (bazis) hisobot yilidagi sof foya qismida biznes-reja ko‘rsatkichlari bajarilgan holatlarda amalga oshiriladi. Jamiyatga berilgan xomiylik va boshqa xayriya yordamlari to‘g‘risida ma’lumot ommaviy axborot vositalarida va o‘zining rasmiy veb saytida berilishi shart va ular bo‘yicha alohida hisobot yuritiladi.

## 9. JAMIYATNING ZAXIRA FONDI

9.1. Jamiyat sof foya xisobidan zaxira fondini hamda jamiyat faoliyati uchun zarur bo‘lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

9.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, jamiyatning zararlari o‘rnini qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

9.3. Jamiyat ustav kapitalining 15 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda zaxira fondi tuziladi. Zaxira fondiga belgilangan miqdorga etgunga qadar xar yili sof foydadan 5 foizgacha miqdorida ajratmalar o‘tkazadi.

9.4. Zaxira Fondi to‘laligicha yoki qisman sarflanib bo‘lgan hollarida, sof foydadan majburiy ajratmalardan tiklanadi.

## **10. JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI**

10.1. Jamiyat boshqaruv organlari:

- Aksiyadorlarning umumiylig‘ilishi;
- Kuzatuv kengashi;
- Ijroiya organi (Jamiyat boshqaruvi va uning raisi).

## **11. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG‘ILISHI**

11.1. Aksiyadorlarning umumiylig‘ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

11.2. Jamiyat xar yili aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiylig‘ilishini o‘tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiylig‘ilishi yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Jamiyat aksiyadorlarining navbatdagi (yillik) umumiylig‘ilishi har yili odatda 01 maydan – 30 iyungacha o‘tkaziladi.

11.3. Jamiyatning bir foizidan kam bo‘lmagan oddiy aksiyalari egalari aksiyadorlar umumiylig‘ilishi kun tartibiga, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a’zoligiga ularning nomzodini (umumiylig‘ilish o‘tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko‘rsatish yuzasidan taklif kiritish xuquqiga ega. Bunday takliflar moliya yili tugaganidan keyin 90 kundan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.

11.4. Aksiyadorlarning yillik umumiylig‘ilishida quyidagi masalalar ko‘riladi:

- kuzatuv kengashini saylash;
- taftish komissiyasini saylash;
- jamiyatning ijroiya organi rahbari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish;
- jamiyatning yillik hisoboti va biznes rejasi ijrosi bo‘yicha hisobot;
- Kuzatuv kengashi va Ijroiya organining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlari;
- foya va zararlarni taqsimlash;
- jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish.

Yig‘ilishda boshqa masalalar ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

11.5. Aksiyadorlarning yillik umumiylig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumiylig‘ilishlari navbatdan tashqari yig‘ilishlardir.

11.6. Aksiyadorlarning umumiylig‘ilishini kuzatuv kengashi raisi, u uzrli sabablarga ko‘ra bo‘lmagan taqdirda esa, kuzatuv kengashi a’zolaridan biri olib boradi.

11.7. Aksiyadorlar umumiylig‘ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat Ustaviga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish yoki Jamiyat yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;
- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a’zolarini saylash va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- e’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;
- ustav kapitalini kamaytirish;
- Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarini sotib olish;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Jamiyatning ijroiya organi rahbarini saylash (tayinlash);
- taftish komissiyasi a’zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek «Taftish komissiyasi to‘g‘risida»gi Nizomni tasdiqlash;
- Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yunalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o‘rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o‘z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun

hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchining) xulosalarini eshitish;

▪ majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnomaga tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- aksiyadorlar umumiyligini yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

▪ O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuniga asosan balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat so'f aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

▪ O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning xukuklarini ximoya qilish to'g'risida»gi Qonuniga asosan jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

▪ korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabarni oshkor qilish shaklini tasdiqlash;

▪ Jamiyatning boshqaruv organlari to'g'risidagi, shu jumladan ichki nazorat, dividend siyosati to'g'risidagi, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

▪ har yili mustaqil professional tashkilotlar – maslahatchilarni jalb qilgan holda biznes jarayonlar va loyihalarning jamiyatning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning joriy xujalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni belgilash;

▪ homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish vakolatini kuzatuv kengashiga berish to'g'risida qaror qabul qilish;

▪ elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o'z vakolatini vakilga berish yo'lli bilan ovoz berish yoki umumiyligini yig'ilishni videokonferens-aloqa tarzida o'tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash);

▪ sanoq komissiyasiga amaliy yordam ko'rsatish yoki uning funksiyasini bajarish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish (masalan, investitsiya maslahatchisi yoki qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisi) tartibini belgilash (tasdiqlash);

▪ Jamiyat mablag'lari hisobidan minoritar aksiyadorlik qo'mitasini saqlash xarajatini qoplash (minoritar aksiyadorlik qo'mitasi tuzilgan taqdirda) tartibini belgilash (tasdiqlash);

▪ aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari ma'ruzalari (hisobotlari) shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiyligini yig'ilishi davomiyligini belgilash;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

11.8. Aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

11.9. Aksiyadorlarning umumiyligini yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida joylashtiriladi. Agar Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari fond birjasining kotirovka varag'iga kiritilgan bo'lsa, mazkur qarorlar birjaning veb-saytida ham joylashtiriladi.

11.10. Aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar ovoz berishda birgalikdagiligi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzish mumkin.

11.11. Jamiyatning minoritar aksiyadorlari hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'lli bilan Jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

11.12. Jamiyat Aksiyadorlar umumiyligini yig'ilishi Jamiyatning «Aksiyadorlar umumiyligini yig'ilishi to'g'risida»gi Nizom asosida chaqiriladi va o'tkaziladi.

## 12. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

12.1. Jamiatning kuzatuv kengashi Jamiat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno.

12.2. Jamiatning kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yillik muddatga saylanadilar. Jamiat Kuzatuv kengashi a'zolarining miqdor tarkibi 9 (to'qqiz) kishidan iborat.

O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunda aks ettirilgan mustaqil a'zo mezonlariga muvofiq bo'lgan kuzatuv kengashining kamida bir nafar (ammo ustavda ko'zda tutilgan kuzatuv kengashi a'zolari sonining 15 foizidan kam bo'limgan) a'zosi – yirik aksiyadorlar tomonidan kelishilgan holda tavsiya etiladi va saylanadi.

12.3. Jamiat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiatning biznes-rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rileyotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- Jamiatning ijroiya organi a'zolarini (raisdan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

- Jamiatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;

- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

- jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchisiga) to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

- zaxira fondidan va boshqa fondlardan foydalanish;

- filiallarni tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarni tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyatni yoki mas'uliyati cheklanmagan jamiyatni shakllarida tuziladi);

- qonunda belgilangan hollarda Jamiat tomonidan yirik bitimlar va Jamiat affillangan shaxslari bilan (manfaatdorlik) bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

- korporativ obligatsiyalar shu jumladan, aksiyalarga ayriboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirish hamda jamiyatning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risidagi qaror qabul qilish;
- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;
- qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;
- kuzatuv kengashi qoshida kuzatuv kengashi, ijroiya organlari a’zolari, jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, soha oliv talim muassasalari o‘qituvchilari va boshqalar)dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo‘yicha qo‘mitalar (ishchi guruxlari) tashkil etish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

12.4. Kuzatuv kengashi a’zolari kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bulgan shaxslar soniga ko‘paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko‘p ovoz to‘plagan nomzodlar Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

12.5. Kuzatuv kengashining raisi kengash a’zolari tomonidan ularning o‘zlari orasidan ko‘pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi o‘z raisini jami a’zolarining ko‘pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

12.6. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnomma yuritilishini tashkil etadi, boshqaruv a’zolari bilan mehnat shartnomasini imzolaydi.

12.7. Kuzatuv kengashi raisi yo‘q bo‘lgan hollarda uning vazifasini kengash a’zolaridan biri amalga oshiradi.

12.8. Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o‘tkaziladi.

Jamiyatning bir foizdan kam bo‘lmagan oddiy aksiyalari egalari kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

12.9. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar nazarda tutilmagan bo‘lsa, majlisda hozir bo‘lganlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashning har bir a’zosi bitta ovozga ega. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a’zosi o‘z ovozini Kuzatuv kengashning boshqa a’zosiga berishiga haqli emas. Kuzatuv kengashi a’zolarining ovozlari teng bo‘lgan holda, kengash raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

12.10. Majlisda kuzatuv kengashi a’zolari video va audio uskunalarini orqali konferensiya aloqasi bo‘yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirtdan berilgan deb hisoblanmaydi.

12.11. Kuzatuv kengashi va uning raisi o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko‘zlab ish tutishlari lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

12.12. Jamiyatning aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag‘iga kiritilgan davrda, Jamiyat faqat mazkur jamiyat kuzatuv kengashining a’zolaridan tarkib topgan audit qo‘mitasini tashkil etishi shart. Jamiyatning ichki audit xizmati, o‘z faoliyatida audit qo‘mitasiga hisobdordir.

12.13. Kuzatuv kengashi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan «Kuzatuv kengashi to‘g‘risida»gi Nizom asosida ish olib boradi.

### **13. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI**

13.1. Jamiyat Boshqaruvi 4 (t‘ort) kishidan iborat bo‘lib, uning tarkibiga Boshqaruv Raisi, Sanoat va information tehnologiyalarda ishlab chiq‘arish, mahalliylashtirish, kooperatsion alop‘alarni kengaytirish bo‘yicha boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari, Tijorat va logistika bo‘yicha boshqaruv raisining o‘rinbosari, Moliya va iqtisod bo‘yicha boshqaruv raisining o‘rinbosari.

13.2. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik boshqaruv va uning raisi (Bosh direktor) tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

13.3. Jamiat Boshqaruvi majlisi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda Boshqaruv a'zolarining 50 (ellik) foizidan ortiq qismi qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

13.4. Jamiat Boshqaruvi majlisida qarorlar majlisda qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Jamiat Boshqaruvi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

13.5. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiat ijroiya organining vakolatlari shartnomasi bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, agar jamiat ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, jamiat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

13.6. Boshqaruv raisi Jamiyatning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiat ustavi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

13.7. Boshqaruv raisi Qonun va muzkur Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishini tashkil etadi va ularga hisobot beradi.

13.8. Boshqaruv raisi va a'zolari kuzatuv kengashi tomonidan sayylanadi (tayinlanadi). U bilan mehnat shartnomasi Jamiyat nomidan kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

13.9. Boshqaruv raisi va a'zolarini tayinlash to'g'risidagi qaror, odatda, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi.

13.10. Aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etayotgan ijroiya organi a'zolari ijroiya organiga a'zolar saylash masalasida ovoz berishda ishtirok etmaydi.

13.11. Boshqaruv vakolatiga qo'yidagilar kiradi:

- Jamiat tuzilmalari rahbarlarini tayinlash;
- ishchi va xodimlariga ish xaqi va mukofotlar miqdorini belgilash;
- Jamiat tuzilmalari rahbarlari hisobotlarini har chorak yakuni bo'yicha eshitish;
- Jamiat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitimlar bo'yicha qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning biznes qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanadan oldingi hisobot sanasiga tuzilgan moliyaviy hisobot bo'yicha jamiat sofabaktivlari miqdorining 5 foizidan 15 foizigacha tashkil etsa, aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno;
- Jamiatning asosiy vositalarini hisobdan chiqarish;
- o'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag'lарini tasarruf etish;
- Jamiatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- Jamiatning ichki me'yoriy xujjalarni tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki jamiat kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;
- Jamiat sho'ba korxonalar, vakolatxonalar va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;
- Jamiat filiallari va vakolatxonalar nizomlarini tasdiqlash va ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- Jamiatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;
- Jamiatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;
- Jamiatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash, Jamiatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Jamiat Boshqaruvi tomonidan belgilanadi;
- Jamiatning Boshqaruvi, qonunchilik, ushbu ustav va Jamiatning me'yoriy xujjalari muvofiq boshqa huquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Boshqaruv raisining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- mazkur Ustav va kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq jamiatning ishiga rahbarlik qilish;

- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;
  - Jamiyat nomidan bitimlar tuzish, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash;
  - kuzatuv kengashining roziligiga ko‘ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;
  - xodimlar shtatlarini tasdiqlash, xodimlarni (ishchilarni) ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta’minalash;
  - Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;
  - Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish;
  - o‘z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishslashini ta’milagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;
  - aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;
  - qonun xujjatlariga muvofiq Jamiyat faoliyatiga doir ma’lumotlarni oshkor qilish;
  - yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o‘z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar taqdim etilishini ta’minalash;
  - amaldagi qonun hujjatlariga hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioxalish.
- 13.12. Boshqaruva va uning raisi o‘z huquqlarini amalga oshirishda va o‘z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko‘zlab ish tutishi lozim. Ular qonun xujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.
- 13.13. Boshqaruva va uning raisi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan «Ijroiya organi to‘g‘risida»gi nizom asosida ish olib boradi.

## 14. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

### a) Jamiyat taftish komissiyasi

- 14.1. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan 1 yil muddatga 3 (uch) kishidan iborat taftish komissiyasi saylanadi.
- 14.2. Jamiyat Taftish komissiyasi a’zolariga doir malaka talablari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilanadi. Ayni bir shaxs Taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket 3 (uch) martadan ortiq saylanishi mumkin emas.
- 14.3. Jamiyat Taftish komissiyasining vakolati doirasiga qo‘yidagilar kiradi:
- Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo‘yicha, o‘zining, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko‘ra yoxud Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko‘ra tekshirish;
  - Jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlarning ishonchliligiga doir baho berish;
  - Qonunchilik va ushbu Ustavga muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi chaqirilishini talab qilish;
  - Qonunchilik va ushbu Ustavga muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashining majlislarini chaqirilishini talab qilish;
  - Taftish komissiyasi, qonunchilik, ushbu Ustav va «Taftish komissiyasi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.
- 14.4. Jamiyat Taftish komissiyasining faoliyat ko‘rsatish tartibi Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadigan «Taftish komissiyasi to‘g‘risida»gi Nizomda belgilanadi.
- 14.5. Jamiyat Taftish komissiyasining yozma talabiga ko‘ra Jamiyat ijroiya organida mansabni egallab turgan shaxslar Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni Taftish komissiyasiga taqdim etishi shart.
- 14.6. Jamiyat Taftish komissiyasining a’zolari bir vaqtning o‘zida Jamiyat Kuzatuv kengashining a’zosi bo‘lishi, shuningdek Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlashi mumkin emas.
- 14.7. Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish Taftish komissiyasining, Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining, Jamiyat Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko‘ra yoki Jamiyat ovoz

beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

14.8. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra Taftish komissiya xulosa tuzadi, bu xulosada:

- Jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchligiga doir baho;

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

14.9. Taftish komissiyasi Jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Jamiyat kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi. Ushbu Ustavning 14.8. bandida ko'rsatilgan axborotni o'z ichiga olgan xulosa Aksiyadorlarning yillik umumiylig'i ilishida eshitiladi.

14.10. Jamiyatning taftish komissiyasi amaldagi qonunchilikga muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiylig'i ilishi chaqirilishini talab qilishga haqlidir.

#### **b) Ichki audit xizmati**

14.11. Jamiyat aktivlarining balans qiymati eng kam ish xaqi miqdorining yuz ming barobarini tashkil etsa va (yoki) oshsa Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdor bo'ladi.

14.12. Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini tomonidan qonun xujjatlariga, jamiyat ustaviga va boshqa xujjatlarga rivoja etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarida ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rivoja etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rivoja etilishini tekshirish xamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

14.13. Ichki audit xizmati jamiyatdagi ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi Jamiyatga tegishli bo'lган yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

14.14. Jamiyatning ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

#### **v) Korporativ maslahatchi**

14.15. Jamiyatda kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lган va korporativ qonun hujjatlariga rivoja etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi jamiyat korporativ maslahatchisi lavozimi joriy etiladi.

14.16. Jamiyat korporativ maslaxatchisining faoliyati jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiriladi.

### **15. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH**

15.1. Jamiyatni qayta tashkil etish (jumladan: qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish) va tugatish aksiyadorlar umumiylig'i ilishining qarori asosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

15.2. Jamiyatni qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 49 – 52 moddalari, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning 92 – 97 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

15.3. Jamiyatning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda jamiyat faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

15.4. Jamiyat quyidagi hollarda tugatiladi:

- aksiyadorlar Umumiylig'i ilishining qaroriga muvofiq;

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq sud qaroriga asosan;
  - amaldagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sabablarga asosan.

15.5. Jamiyatni tugatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 53 – 56 moddalari, shuningdek «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» qonunning 98 – 101 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

## 16. USTAVGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

16.1. Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig‘ilishi va o‘z vakolatlari doirasida Jamiat Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiat Ustaviga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar O‘zbekiston Respublikasining tegishli Davlat organida belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi.

16.2. Jamiyat Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

16.3. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o‘z kuchini yo‘qotgan bo‘lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to‘xtatish uchun sabab bo‘lmaydi.

16.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik xujjatlari mazkur ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik xujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

16.5. Jamiyatning ushbu Ustavi Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi munosabati bilan Farg‘ona shahar xokimligi xuzuridagi tadbirkorlik sub’ektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish «YAgona darcha markazi» tomonidan 2019 yil 8 avgustdagи 125 – raqami bilan qayta ro‘yxatga olingan Jamiyat ustavi va unga kiritilgan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi.

## 17. YAKUNIY QOIDALAR

17.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishushi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

17.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'limgan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

17.3. Mazkur Ustav va uning kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingen vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

## «Farg'onaazot» Aksiyadorlik jamiyatiga Boshqaruv raisi



A.T.Salijanov